




SCIENTIFIC JOURNAL
OF THE ACADEMY
OF THE MINISTRY OF EMERGENCY SITUATIONS



ISSN: 3060-5121

№ 2 (8), 2026



FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

ILMIY JURNALI



05.00.00 – TEXNIKA FANLARI



12.00.00 – YURIDIK FANLARI



13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI



**ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI
AKADEMIYASI**

**ISSN: 3060-5121
№ 2 (8), 2026**

**“FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI” ILMIY JURNALI**

**НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ “ВЕСТНИК АКАДЕМИИ МИНИСТЕРСТВА ПО
ЧРЕЗВЫЧАЙНЫМ СИТУАЦИЯМ”**

**SCIENTIFIC JOURNAL “BULLETIN OF THE ACADEMY OF THE
MINISTRY OF EMERGENCY SITUATIONS”**

TOSHKENT – 2026

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnali

Bosh muharrir:	Mas’ul muharrir:	Mas’ul kotib:	Texnik muharrir:
<p>Mamasiddiqov M.M. <i>O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, yuridik fanlari doktori, professor</i></p>	<p>Nazarov F.A. <i>Texnikafanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i></p>	<p>Nasriddinov D.K. <i>O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent</i></p>	<p>Choriyev B.B. <i>Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi kafedra katta o‘qituvchisi</i></p>

TAHRIR HAY’ATI A’ZOLARI:

- A.X.Saidov** – Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy markazi, yuridik fanlar doktori, Akademik
- M.X.Rustambayev** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor;
- B.K.Xodjayev** – Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlar doktori, professor
- M.T.Turg‘unov** – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Davlat va huquq instituti, yuridik fanlar doktori, professor
- M.A.Eshmuxamedov** – Toshkent davlat texnika universiteti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent;
- F.N.Nurqulov** – Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor;
- R.R.Nurmamatova** – Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi xodimlarining malakasini oshirish markazi, texnika fanlari doktori, professor;
- R.A.Zufarov** – Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlar doktori, professor;
- D.B.Xoliqulov** – Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali, texnika fanlari doktori, professor;
- N.A.Qodirov** – Toshkent davlat texnika universiteti, texnika fanlari doktori, professor;
- Q.M.Murtazayev** – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;
- Sh.X.Abdazimov** – Toshkent Davlat transport universiteti, texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;
- A.A.Xakberdiev** – Toshkent davlat yuridik universiteti, yuridik fanlar doktori, dotsent
- Y.V.Kolenko** – O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, professor;
- X.A.Kurbanov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, professor;
- R.Boltaboyev** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, kimyo fanlari nomzodi, professor;
- M.R.Doschanov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
- A.D.Dusmatova** – Farmatsevtika ta’lim va tadqiqot instituti, kimyo fanlari nomzodi, dotsent;
- E.E.Sabirov** – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
- D.R.Raupov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
- G‘.Z.Ikmatullayev** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
- H.M.Sharipov** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari nomzodi, dotsent;
- M.I.Alimov** – O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent;
- M.I.Saidkarimova** – O‘zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, pedagogika fanlari nomzodi;
- N.K.O‘razbayev** – O‘zbekiston Respublikasi

FVV Akademiyasi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori;

R.S.Reimbayev – O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

J.N.Muradov – O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

X.N.Yangiboyev – O'zbekiston Respublikasi FVV Fuqaro muhofazasi instituti, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori;

F.K.Karimov – O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

A.A.Rustamov – O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori;

J.S.Bolikulov – O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori;

D.M.Junsaliyev – O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida O'zbekiston matbuot va axborot agentligida 2024-yil 19-aprelda ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilganligi bo'yicha 259550-raqamli guvohnoma berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-maydagi 176-son “Axborot-kutubxona sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida”gi qarori talablari asosida “Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi axborotnomasi” ilmiy jurnaliga 2025-yil 3-mart kuni 3060-5121 xalqaro standart seriya raqami (ISSN) berilgan.

Ilmiy jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining tegishli qarorlari bilan texnika, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Litsenziya reyestri bo'yicha tartib raqami S-5669537.

Jurnalda maqolalar o'zbek, rus, ingliz tillarida chop etiladi va bir yilda to'rt marotaba nashr etiladi.

тўртинчидан, судьялар, прокурорлар ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ходимлари учун сунъий интеллект ва рақамли технологиялар бўйича махсус малака ошириш курсларини ташкил этиш муҳим аҳамиятга эга;

бешинчидан, сунъий интеллект орқали қабул қилинадиган қарорларда инсон назоратини сақлаб қолиш ва “инсон ишпирокисиз яқуний қарор қабул қилинмаслиги” принципини қонунчиликда мустаҳкамлаш мақсадга мувофиқ;

олтинчидан, Европа Иттифоқи ва Туркиянинг илғор тажрибасини миллий қонунчиликка имплементация қилиш ҳамда халқаро ҳамкорликни ривожлантириш зарур.

Хулоса қилиб айтганда, суд ва прокуратура органлари фаолиятида сунъий интеллект технологияларини ҳуқуқий асосда жорий этиш одил судлов тизимининг самарадорлигини ошириш, процессуал жараёнларни рақамлаштириш, инсон омилини камайтириш ва фуқароларнинг ҳуқуқ ҳамда эркинликларини ишончли ҳимоя қилишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Сунъий интеллект технологияларини ривожлантириш учун шарт-шароитлар яратиш тўғрисида”ги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари.
2. European Commission. Artificial Intelligence Act (AI Act). – Brussels, 2024.
3. Council of Europe. European Ethical Charter on the Use of Artificial Intelligence in Judicial Systems and their Environment. – Strasbourg, 2018.
4. European Parliament Resolution on Artificial Intelligence in Criminal Law and its Use by the Police and Judicial Authorities. – Brussels, 2021.
5. CEPEJ. Guidelines on Artificial Intelligence and Data Protection in Judicial Systems. – Strasbourg, 2022.
6. Turkey Ministry of Justice. Judicial Reform Strategy Document 2019–2023. – Ankara, 2019.
7. Republic of Türkiye Ministry of Justice. National Artificial Intelligence Strategy 2021–2025. – Ankara, 2021.



K.A. Rixsimov

O‘zbekiston Respublikasi Kriminologiya tadqiqot instituti bosh ilmiy xodimi

UDK 347.44:368.021:343.8

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI O‘TAYOTGAN SHAXSLARNI SUG‘URTALASHNING TASHKILIIY-HUQUQIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya: *Maqolada ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxslarni (mahkumlarni) sug‘urtalashning huquqiy tabiati, mazmuni va penitensiar tizimdagi ahamiyati tahlil qilingan. Muallif mahkumlarning mehnat faoliyati jarayonida sog‘lig‘iga yetkazilgan zararni qoplash, ularni ijtimoiy va tibbiy sug‘urtalash tizimidagi bo‘shliqlarni milliy qonunchilik hamda xalqaro standartlar (Nelson Mandela qoidalari) kontekstida tadqiq etgan. Maqola yakunida*

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksiga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.

***Kalit so‘zlar:** penitensiar tizim, mahkum, majburiy sug‘urta, ixtiyoriy sug‘urta, mehnat muhofazasi, resotsializatsiya, Nelson Mandela qoidalari.*

Рихсимов К.А.

*главный научный сотрудник Института
криминологических исследований Республики Узбекистан*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВЫХ МЕХАНИЗМОВ СТРАХОВАНИЯ ЛИЦ, ОТБЫВАЮЩИХ НАКАЗАНИЕ В ВИДЕ ЛИШЕНИЯ СВОБОДЫ

***Аннотация:** В статье анализируются правовая природа, содержание и значение страхования лиц, отбывающих наказание в виде лишения свободы (осужденных), в пенитенциарной системе. Автор исследует пробелы в системе социального и медицинского страхования, а также возмещения вреда, причиненного здоровью осужденных в процессе их трудовой деятельности, в контексте национального законодательства и международных стандартов (Правил Нельсона Манделы). В заключении статьи выдвинуты научно-практические предложения по внесению соответствующих изменений в Уголовно-исполнительный кодекс Республики Узбекистан.*

***Ключевые слова:** пенитенциарная система, осужденный, обязательное страхование, добровольное страхование, охрана труда, ресоциализация, Правила Нельсона Манделы.*

Rikhsimov K.A.

*Chief Research Fellow of the Institute of
Criminological Research of the Republic of Uzbekistan.*

IMPROVEMENT OF ORGANIZATIONAL AND LEGAL MECHANISMS FOR THE INSURANCE OF PERSONS SERVING SENTENCES OF IMPRISONMENT

***Abstract:** The article analyzes the legal nature, content, and significance of insuring persons serving sentences of imprisonment (convicts) within the penitentiary system. The author examines gaps in the social and medical insurance systems, as well as the compensation for harm caused to the health of convicts during their labor activities, in the context of national legislation and international standards (the Nelson Mandela Rules). In conclusion, the article puts forward scientific and practical proposals for introducing relevant amendments to the Criminal Executive Code of the Republic Uzbekistan.*

***Keywords:** penitentiary system, convict, compulsory insurance, voluntary insurance, labor protection, resocialization, Nelson Mandela Rules.*

Kirish. Inson huquqlari ustuvorligi ta‘minlarayotgan zamonaviy dunyoda jazoni ijro etish siyosatining bosh maqsadi mahkumni faqatgina jamiyatdan ajratish emas, balki uning buzilgan huquqiy maqomini tiklash va qayta hayotga moslashtirishdan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar jarayonida mahkumlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlarini, xususan, ularning hayoti va sog‘lig‘ini sug‘urta himoyasi bilan ta‘minlash tizimini tibbiy-huquqiy jihatdan qayta ko‘rib chiqish zarurati tug‘ilmoqda.

Mahkumlarni sugʻurtalash instituti – bu shunchaki moliyaviy kafolat emas, balki inson qadr-qimmatini penitensiar muhitda ham oliy qadriyat sifatida tan olinishining huquqiy ifodasidir.

BMTning Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari) 101-qoidasida mahbuslarning mehnati uchun xavfsiz sharoitlar yaratilishi va ularning ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan xuddi ozodlikdagi ishchilar kabi sugʻurtalanishi shartligi belgilangan.

Biroq, milliy jinoyat-ijroiya amaliyoti va qonunchiligi tahlili (xususan, Jinoyat ijroiya kodeksining 88-96-moddalari) shuni koʻrsatadiki, mahkumlarning mehnat qilish huquqi va undan kelib chiqadigan ijtimoiy kafolatlar toʻliq transformatsiya qilinmaganligini, jazoni ijro etish muassasalaridagi ishlab chiqarish korxonalarida mehnat qilayotgan mahkumlarning jarohatlanishi yoki kasb kasalligiga chalinishi holatlarida ularning moddiy kompensatsiya olish mexanizmlari murakkab va noaniq boʻlib qolayotganligini koʻrsatmoqda.

Mavzu yuzasidan adabiyotlar tahlili. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini oʻtayotgan shaxslarni sugʻurtalash masalasi jinoyat-ijroiya huquqi, ijtimoiy himoya, mehnat huquqi va sugʻurta huquqi kesishmasida joylashgan dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi. Amaldagi jinoyat-ijroiya qonunchiligida mahkumlarning huquqiy maqomi, ularni axloqan tuzatish vositalari, jazoni oʻtash shartlari va ozod etish tartibi belgilangan boʻlsa-da, ularni sugʻurtalashning maxsus tashkiliy-huquqiy mexanizmlari yetarlicha tizimli shakllanmagan. Jinoyat-ijroiya kodeksi jinoyat jazolarini ijro etish tartibi, mahkumlarning huquqiy maqomi va jazoni ijro etish muassasalari faoliyatining asosiy qoidalarini belgilaydi .

Sugʻurta munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy hujjatlardan biri “Sugʻurta faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonun boʻlib, u sugʻurta faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Biroq mazkur qonun davlat ijtimoiy sugʻurtasi va davlat tibbiy sugʻurtasi bilan bogʻliq munosabatlarga tatbiq etilmasligi koʻrsatilgan . Bu holat ozodlikdan mahrum qilish jazosini oʻtayotgan shaxslarni sugʻurtalashda umumiy sugʻurta, ijtimoiy sugʻurta va tibbiy sugʻurta mexanizmlarining chegaralarini aniqlashtirish zarurligini koʻrsatadi.

Ilmiy adabiyotlarda mahkumlarning ijtimoiy himoyasi masalasi, asosan, ularning mehnatga jalb qilinishi, sogʻligʻini saqlash, ozodlikka chiqqandan keyingi ijtimoiy moslashuvi va rehabilitatsiyasi doirasida oʻrganilgan. Oʻzbekiston amaliyotida ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy taʼminlash va ishga joylashtirish tizimini takomillashtirish boʻyicha alohida chora-tadbirlar belgilangan . Biroq jazoni oʻtash davrining oʻzida yuzaga keladigan ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa, kasallanish, mehnat qobiliyatini yoʻqotish yoki sogʻliqqa yetkazilgan zarar kabi xavflarni sugʻurta orqali qoplash masalasi yetarli darajada yoritilmagan.

Xorijiy manbalarda penitensiar tizimda saqlanayotgan shaxslarning sogʻliqni saqlash, ijtimoiy xizmatlardan foydalanish va huquqiy yordam olish imkoniyatlari alohida tadqiq qilinadi. Jahon sogʻliqni saqlash tashkilotining qamoqxona salomatligi

bo'yicha yondashuvlarida qamoqxona sharoitida sog'liqni saqlash xizmatlarini umumiy sog'liqni saqlash tizimi bilan uyg'unlashtirish muhimligi ta'kidlanadi. Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda mahkumlarning raqamli sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishini qo'llab-quvvatlash zarurligi qayd etilgan. Bu yondashuvlar sug'urta mexanizmlarini ham raqamlashtirish, mahkumlarning sug'urta hodisalari bo'yicha murojaat qilish tartibini soddalashtirish va ularning huquqiy xabardorligini oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarni sug'urtalash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Birinchidan, mahkumlarning mehnat jarayonida ishtirok etishi ularni ishlab chiqarishdagi xavflardan himoya qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, jazoni ijro etish muassasalarida sog'liqni saqlash, tibbiy yordam va ijtimoiy himoya tizimi sug'urta institutlari bilan uyg'unlashishi lozim. Uchinchidan, sug'urta hodisasi yuz berganda tovon puli tayinlash, hujjatlarni rasmiylashtirish, sug'urta tashkilotlari bilan hamkorlik qilish va nazorat mexanizmlarini belgilash bo'yicha aniq tashkiliy-huquqiy tartib ishlab chiqilishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarni sug'urtalashning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi.

Xususan, dialektik usul yordamida mahkumlarni ijtimoiy himoya qilish tizimining rivojlanish tendensiyalari, sug'urta munosabatlarining huquqiy tabiati hamda ularning jazoni ijro etish tizimidagi o'rni tahlil qilindi. Tizimli-tahliliy usul orqali mahkumlarning hayoti, sog'lig'i va mehnat faoliyati bilan bog'liq sug'urta munosabatlarining amaldagi holati, ularning normativ-huquqiy asoslari va institutsional mexanizmlari o'rganildi.

Qiyosiy-huquqiy usul yordamida xorijiy davlatlar, jumladan Germaniya, Fransiya, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va boshqa mamlakatlarda jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarni sug'urtalash amaliyoti tahlil qilinib, ilg'or tajribalar aniqlandi. Formal-yuridik usul asosida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Jinoyat-ijroiya kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonuni hamda mahkumlarning huquq va erkinliklarini kafolatlovchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlar o'rganildi.

Statistik tahlil usuli orqali jazoni ijro etish muassasalarida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari, mehnat faoliyati bilan bog'liq xavf omillari hamda mahkumlarni ijtimoiy himoya qilish ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Sotsiologik usullar, jumladan ekspertlar so'rovi va intervyu yordamida jazoni ijro etish muassasalari xodimlari, sug'urta sohasi mutaxassislari hamda huquqshunos olimlarning fikr-mulohazalari o'rganildi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish jarayonida mantiqiy tahlil, induksiya, deduksiya, sintez va prognozlash usullaridan foydalanildi. Mazkur metodologik yondashuv ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxslarni sug'urtalashning

amaldagi tashkiliy-huquqiy mexanizmlaridagi muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Natija va tahlillar. Olib borgan ilmiy izlanishlarimiz asosida mahkumlarni sug‘urtalash tizimini tashkil etishning 3 ta asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin:

Birinchi, mehnat faoliyati bilan bog‘liq majburiy sug‘urta (ishlab chiqarish korxonasiidagi baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash).

JIEMLardagi ishlab chiqarish korxonalari, manzil koloniyalarining tashqi obyektlari va tadbirkorlik subyektlarining shartnoma obyektlari yuqori xavf manbai, ya‘ni jarohat yoki turli xil kasallikka chalinish ehtimoli mavjud bo‘lgan hududlar hisoblanadi.

Mahkum mehnatga jalb etilar ekan, u bilan tuziladigan munosabatlar fuqarolik-huquqiy yoki mehnat shartnomasi shaklida bo‘lishidan qat‘i nazar, uning hayoti davlat nazorati ostida bo‘ladi.

Agar mahkum ishlab chiqarishda nogiron bo‘lib qolsa, u ozodlikka chiqqanidan keyin jamiyatga ortiqcha yuk va ijtimoiy himoyasiz qatlam sifatida qaytadi.

JIEM qoshidagi korxonalar (ish beruvchilar) mahkumlar uchun majburiy sug‘urta badallarini to‘lashi qonun bilan mustahkamlanishi lozim.

Ikkinchi, ixtiyoriy tibbiy va hayot sug‘urtasi.

Mahkumlar o‘z mablag‘lari (shaxsiy hisobvarag‘idagi pullar) yoki ularning yaqin qarindoshlari hisobidan ixtiyoriy sug‘urta polislarini sotib olish huquqiga ega bo‘lishi kerak.

Bu tizim JIEMda ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifatini oshirishga, muassasadan tashqaridagi davlat va xususiy shifoxonalarda davolanish xarajatlarini qoplashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, Jahon sog‘liqni saqlash tashkilot va BMTning Narkotiklar va jinoyatchilik bo‘yicha boshqarmasining 2014 yildagi Qamoqxonalar va sog‘liqni saqlash qoidalari ko‘ra, mahkumlar ozodlikdan mahrum etilganda ham, erkinlik huquqidan tashqari barcha inson huquqlarini o‘zlarida saqlab qolishlari, ularning salomatlikka bo‘lgan huquqi hech qanday tarzda o‘zgarmasligi ko‘rsatilgan.

2023-2025 yillarda jazoni ijro etish muassasalarida mehnatga jalb qilingan mahkumlarning 2023-yilda 114 nafari, 2024-yilda 128 nafari, 2025-yilda 146 nafari ishlab chiqarish korxonalarida ehtiyotsizlik oqibatida tan jarohati olishgan.

Bu esa mahkumlarning hayoti va sog‘lig‘ini ijtimoiy-huquqiy himoya qilish, xususan, ularni tibbiy sug‘urtalash tizimini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

uchinchi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi “Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta‘minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 543-son qarorida pensiya sug‘urtasi nazarda tutilgan.

Mahkumning JIEMda ishlagan davri uning umumiy mehnat stajiga qo‘shilishi qonunchilikda belgilangan. Biroq, sug‘urta badallarining Yagona ijtimoiy to‘lov tizimi orqali ushlab qolinishi va shakllanishi mexanizmini shaffoflashtirish lozim.

Jahon penitensiar amaliyotida mahkumlarni sugʻurtalash instituti inson huquqlarini himoya qilish, mehnat muhofazasini taʼminlash va postpenitensiar (jazodan ozod boʻlgandan keyingi) davrda qayta jinoyat sodir etilishining (retsivning) oldini olishga qaratilgan kompleks tizim hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini tizimli tahlil qilish maqsadida, ularni shartli ravishda uchta asosiy modellashtirilgan tizimga ajratish mumkin: **Yevropa (ijtimoiy-himoya) modeli, Anglo-sakson (liberal-iqtisodiy) modeli va Osiyo (aralash) modeli.**

Yevropa (ijtimoiy-himoya) modeli.

Yevropa penitensiar tizimida mahkum – bu huquqlardan butunlay mahrum etilgan shaxs emas, balki ozodligi vaqtincha cheklangan fuqaro hisoblanadi. Shu sababli, bu davlatlarda sugʻurta tizimi maksimal darajada ijtimoiylashgan.

Germaniyaning Jinoyat-ijroiya qonuni mahkumlarning ijtimoiy sugʻurta tizimida ishtirok etishini qatʼiy kafolatlaydi.

Germaniyada jazoni oʻtash davrida mehnatga jalb etilgan har bir mahkum majburiy tartibda ishsizlikdan sugʻurta qilinadi. Sugʻurta badallarining bir qismi muassasa (ish beruvchi), ikkinchi qismi mahkumning ish haqidan ajratiladi. Shaxs ozodlikka chiqqandan soʻng, unga dastlabki 4-6 oy davomida davlat tomonidan ishsizlik nafaqasi toʻlanadi. Bu sobiq mahkumning ozodlikdagi dastlabki davrda pulsizlik sababli qayta jinoyat sodir etilishining oldini oladi.

Muassasada sogʻligʻiga shikast yetgan mahkumlarga ozodlikdagi fuqarolar bilan bir xil miqdorda umrbodlik nogironlik nafaqasi yoki kompensatsiya toʻlanadi.

Skandinaviya davlatlarida “normallashtirish prinsipi” amal qiladi, yaʼni qamoqxonadagi hayot ozodlikdagi hayotga iloji boricha yaqin boʻlishi shart. Mahkumlar davlatning umumiy Majburiy tibbiy sugʻurta tizimidan chiqarilmaydi. Ular tibbiy sugʻurta polisi asosida nafaqat muassasa shifokori, balki zarur hollarda fuqarolik shifoxonalarining tor soha mutaxassislari xizmatidan ham bepul foydalanishadi.

Anglo-sakson (liberal-iqtisodiy) modeli.

Bu model bozor iqtisodiyoti va xususiy penitensiar muassasalar (xususiy qamoqxonalar) faoliyati bilan uzviy bogʻliq boʻlib, koʻproq tijorat va xavf-xatarlarni boshqarish xususiyatiga ega.

AQShda qamoqxonalar tizimida ishlab chiqarish juda rivojlangan (Federal Prison Industries / UNICOR dasturi) boʻlib, mahkum mehnat jarayonida jarohat olsa, unga Federal xodimlarning kompensatsiya toʻgʻrisidagi qonuni andozalari asosida tuzilgan maxsus tizim orqali tovon puli toʻlanadi.

Xususiy qamoqxonalar boshqaruvchi kompaniyalari oʻz faoliyatidagi xavflarni (mahkumlarning ommaviy tartibbuzarligi, ovqatdan zaharlanishi yoki shikastlanishi) sugʻurta kompaniyalarida majburiy sugʻurtalaydi. Agar muassasa maʼmuriyatining aybi bilan mahkumning sogʻligʻiga zarar yetsa, sugʻurta kompaniyasi barcha daʼvolarni qoplaydi. Bu esa xususiy qamoqxonalarni mahkumlar xavfsizligiga va mehnat muhofazasiga jiddiy eʼtibor qaratishga majbur qiladi.

Osiyo (aralash) modeli.

Bu modelda asosiy urgʻu davlat, jamiyat va mahkumning oʻzaro masʻuliyatiga hamda mehnat orqali axloqan tuzatishga qaratilgan.

Yaponiyada mahkumlarning deyarli 90 foizi mehnatga jalb etiladi. Yaponiya qonunchiligiga koʻra, mahkumlarni sugʻurtalash tijorat sugʻurtasi shaklida emas, balki davlat tomonidan kafolatlangan maxsus penitensiar jamgʻarmalar orqali amalga oshiriladi. Ishlab chiqarishda jarohat olgan mahkumga ozodlikka chiqish vaqtida davlat kompensatsiyasi sifatida katta miqdorda mablagʻ beriladi. Bu mablagʻ sugʻurta prinsiplari asosida shakllantiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida sugʻurta oʻrniga ozodlikdan mahrum etish jazosini oʻtab boʻlgan fuqarolarga «**dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi**» mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan birinchi navbatda tuman (shahar) byudjetlari mablagʻlari hisobidan, yetishmagan qismi boʻyicha esa - Qoraqalpogʻiston Respublikasi byudjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjetlari mablagʻlari hisobidan mehnatga haq toʻlashning eng kam miqdorining oʻn baravari miqdorida beriladi [5].

Bunda koʻmak oluvchi jazoni oʻtab boʻlgandan keyin uch oy ichida oʻzining tadbirkorlik, meʼmorchilik, hunarmandchilik yoki shu kabi boshqa yoʻnalishdagi aniq loyihasini ilova qilgan holda ishchi organga ariza taqdim etishi lozim boʻladi.

Xorij tajribasi shuni koʻrsatadiki, mahkumlarni sugʻurtalash tizimi davlat uchun qoʻshimcha xarajat emas, balki uzoq muddatli istiqbolda ijtimoiy barqarorlikka kiritilgan investitsiyadir. Mahkum sugʻurtalanganini va davlat uning sogʻligʻiga masʻulligini his qilsa, muassasa ichidagi tartibbuzarliklar soni kamayadi, mehnat unumdorligi ortadi va eng muhimi – retsdiv jinoyatchilik darajasi keskin pasayadi.

Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Jinoyat-ijroiya kodeksiga va sugʻurta qonunchiligini yanada takomillashtirish boʻyicha quyidagilar **taklif etiladi**:

1. Germaniya tajribasi asosida mahkum jazo oʻtash davrida JIEM korxonasida ishlagan maoshidan maʼlum foizni ijtimoiy sugʻurta jamgʻarmasiga yoʻnaltirish.

Ozodlikka chiqqandan soʻng, ushbu jamgʻarma hisobidan unga 3 oy davomida “moslashuv nafaqasi” toʻlanishini qonunan belgilash.

Mahkumning oylik ish haqi: 12 % ijtimoiy soliq ajratmasi (8 % davlat pensiya jamgʻarmasiga, 4 % muddatli sugʻurta fondiga – ozodlikka chiqqanida 3 oy davomida foydalanish uchun “moslashuv nafaqasi”)

2. Oʻzbekiston sugʻurta bozoridagi yirik kompaniyalar (“Oʻzbekinvest”, “Kapital Sugʻurta” va boshqalar) bilan hamkorlikda JIEMlar uchun maxsus imtiyozli sugʻurta mahsulotlari paketlarini ishlab chiqish.

3. Jinoyat-ijroiya kodeksiga mahkumlar mehnati va huquqlariga bagʻishlangan boblariga “Mahkumlarni ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan majburiy davlat sugʻurtasi” nomli yangi modda kiritish.

«88¹-modda. Mahkumlarning sugʻurta huquqlari va kafolatlari

Jazoni ijro etish muassasalari korxonalarida va boshqa obyektlarda mehnatga jalb etilgan mahkumlar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar va kasb kasalliklaridan davlat tomonidan majburiy sugʻurta qilinadi. Mahkumlar va ularning qonuniy

vakillari o‘z mablag‘lari hisobidan ixtiyoriy tibbiy va hayot sug‘urtasi shartnomalarini tuzish huquqiga ega. Mahkumlarni sug‘urta qilish tartibi va shartlari qonunchilik bilan belgilanadi».

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxslarni sug‘urtalash tizimini takomillashtirish ularning konstitutsiyaviy huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlashning muhim kafolatlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, amaldagi qonunchilikda mahkumlarni sug‘urtalash bilan bog‘liq munosabatlar yetarli darajada tartibga solinmagan bo‘lib, bu sohada yagona tashkiliy-huquqiy mexanizm mavjud emas.

Tadqiqot davomida mahkumlarning mehnat faoliyati jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan baxtsiz hodisalar, kasb kasalliklari, sog‘liqqa yetkazilgan zarar hamda boshqa sug‘urta hodisalari bo‘yicha huquqiy himoyasi yetarli darajada ta‘minlanmayotgani aniqlandi. Xalqaro tajriba tahlili ayrim davlatlarda mahkumlar majburiy ijtimoiy sug‘urta tizimiga jalb etilganligi va bu ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga xizmat qilayotganligini ko‘rsatdi.

Shundan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi:

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxslarni sug‘urtalashning huquqiy asoslarini belgilovchi alohida normativ-huquqiy hujjat yoki qonunchilik normalarini ishlab chiqish.

Mahkumlarning ishlab chiqarish faoliyatida ishtirok etishi bilan bog‘liq hollarda ularni majburiy baxtsiz hodisalardan sug‘urtalash tizimini joriy etish.

Jazoni ijro etish muassasalarida mehnat qilayotgan mahkumlarni davlat ijtimoiy sug‘urtasi tizimiga bosqichma-bosqich integratsiya qilish.

Sug‘urta mukofotlarini shakllantirish manbalari sifatida ishlab chiqarish korxonalarini, budget mablag‘lari hamda boshqa qonuniy manbalardan foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish.

Sug‘urta hodisasi yuz berganda zararlarni qoplash, kompensatsiya to‘lash va nizolarni ko‘rib chiqishning aniq protsessual tartibini belgilash.

Jazoni ijro etish muassasalari, sug‘urta tashkilotlari va vakolatli davlat organlari o‘rtasida elektron axborot almashinuvi tizimini joriy etish orqali sug‘urta munosabatlarining shaffofligini ta‘minlash.

Mahkumlarning sug‘urta huquqlari va majburiyatlari yuzasidan huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan targ‘ibot va tushuntirish ishlarini tizimli ravishda tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tayotgan shaxslarni sug‘urtalashning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmini yaratish ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, inson huquqlarini ta‘minlash hamda jazoni ijro etish tizimining insonparvarlik tamoyillarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. BMTning Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart qoidalari (Nelson Mandela qoidalari) 101-qoidasi.